



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
KOSONSOY TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

2023 - yil 10 - oktabr

345-6-80-Q/23

Kosonsoy tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo'yish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunning 12 moddasi hamda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 14-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-son qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumanda 2024-yil uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo'yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga,

2024-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro'yxati 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 38-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun 2-ilovaga muvofiq xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha sonidan 139 nafarini tashkil etadigan 0.07 foiz miqdorida, shu jumladan:

nogironlar uchun 2,1 foiz (41 kishi, yuqorida ko'rsatilgan ish o'rinlariga tumanda nogiron shaxslarning ishga joylashishi bo'yicha talab 20 ta bo'lganligi sababli, kelgusida 21 ta ish o'rinni umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun band etib qo'yilsin);

umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun 2,2 foiz (43 kishi);

o'n to'rt yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali otalar uchun 1,2 foiz (24 kishi);

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 0,7 foiz (13 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun 0,3 foiz (5 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tushadigan majburlov choralari qo'llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 0,4 foiz (8 kishi);

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan odam savdosi qurbonlari uchun 0,3 foiz (5 kishi) miqdorida ish o'rinlari zahirasi belgilansin.

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o'rinlari xodimlar tomonidan o'zlarining mehnat majburiyatlarini to'rsiqsiz bajarishini ta'minlaydigan sanitariya-gigiena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo'lishini ta'minlash, shu jumladan quyidagilarga muvofiq bo'lishi kerak:

yolg'iz ota, yolg'iz ona va 14 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalari bor ko'p bolali ota-onalar uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo'yicha vazifalarni uyg'unlashtirish imkonini beradigan, o'zgaruvchan ish jadvaliga ega bo'lgan ish o'rinlari;

ta'lim muassasalarini tugatgan yoshlar uchun – ularning kasb bo'yicha tayyorgarligiga muvofiq bo'lgan ish o'rinlari;

muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun – ularning kasb

bo'yicha tayyorgarligiga muvofiq bo'lgan ish o'rinlari;

nogironlar uchun – mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to'sqinliksiz bajarish imkonini (sog'lig'ining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko'rsatkichlar hisobga olingan holda) beradigan ish o'rinlari;

tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun – maxsus malakani talab qilmaydigan ish o'rinlari;

jazoni o'tash muassasalaridan bo'shatilgan, jazoni o'tayotgan yoki sud qaroriga ko'ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko'rilgan shaxslar, odam savdosidan jabrlanganlar uchun – ularning kasb bo'yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o'rinlari, muayyan

kasb-hunarga, malakaga ega bo'lmagan shaxslar uchun esa – maxsus malakani talab qilmaydigan ish o'rinlari.

4. Ish o'rinlari band qilib qo'yiladigan kasblar va lavozimlar ro'yxati quyidagicha belgilansin:

muhandislar, iqtisodchilar, hisobchi, hisobchi-taftishchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, o'qituvchi, tarozibon, elektr va avtoaravacha haydovchisi, tashuvchi, farrosh, o'tyoqar, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, EHM operatori, tikuvchi, yukchi, ishchi, bog'bon, qorovul.

5. Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlariga:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ko'rsatilgan ish o'rinlari tashkil etilishini ta'minlash;

yil boshlangunga qadar o'n kundan kechikmay ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yilgan ish o'rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi hajmida ish o'rinlari band qilib qo'yilishini va tayyor bo'lishini ta'minlasin, ushbu

to'g'risida tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markaziga yil boshlangunga qadar axborot berilsin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o'rinlarining qolgan qismini band qilib qo'yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta'minlash, bu to'g'rida tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markaziga birinchi chorak tugagandan keyin o'n kundan kechikmay axborot berish;

tashkilotlar har chorakda tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markaziga yuqorida ko'rsatilgan toifadagi shaxslarning ishga joylashtirilishi to'g'risida ushbu nizomga 3-ilogaga muvofiq shakl bo'yicha axborot taqdim etishi;

band qilib qo'yilgan ish o'rinlarining belgilangan soni hisobiga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining tayyorligi to'g'risidagi axborotni tashkilot tomonidan takdim etilmaganligiga ham va amalda ularning tayyor emasligiga ham mehnat organi tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organi qarorining bajarilmaganligi sifatida qarashi lozimligi qayd etilsin.

6. Ushbu qaror bajarilmagan taqdirda shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 21-bandiga muvofiq ma'muriy javobgarlik belgilanishi ko'rsatib o'tilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari Vazirining "O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 31.05.2019 yil kundagi AV №3163-sonli buyrug'iga asosan "ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni, kvotalangan ish o'rinlarining eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan korxona, tashkilotlarga - har bir xodim uchun 12 oy davomida, har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to'lash to'g'risida" norma belgilanganligi ma'lum qilinsin.

8. Tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi (K.Miraxmedov) besh kun muddatda ushbu qarorni 1-bandida ko'rsatilgan tashkilot rahbarlari e'tiboriga yetkazsin va ushbu qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlasin.

9. Ushbu qaror “Kosonsoynoma” tuman gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab 2 oydan keyin kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o’rinbosari E.Toshpulatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



D.Kadirov

Kosonsoy tuman hokimining
2023-yil 10-oktabrdagi
345-6-80-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida
teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan shaxslar uchun ish joylarining
eng kam miqdorini belgilash bo'yicha komissiya**

TARKIBI

Komissiya raisi

1. E. Toshpulatov - Tuman hokimining birinchi o'rinbosari

Komissiya raisining o'rinbosari

2. K. Miraxmedov - Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish
bo'limi boshlig'i

Komissiya a'zolari

3. S. Azimov - Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish
bo'limi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish
sho'ba mudiri
4. A. Dadajonov - Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Kosonsoy tumani
bo'limi boshlig'i
5. A. Qirg'izov - Kosonsoy tuman statistika bo'limi boshlig'i
6. B. Jo'raev - Tuman hokimligi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari
bo'yicha komissiya mas'ul kotibi
7. D. Sottiev - Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish
bo'limi mutaxassisi, komissiya kotibi.

*Izoh: komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, ularning o'rniga yangi
tayinlangan shaxslar komissiya a'zosi hisoblanadi.*

Kosonsoy tuman hokimining
2023-yil 10-oktabrdagi
345-6-80-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Tumandagi ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar

RO'YXATI

№	Tashkilotlar	Jami ishlovchilar soni	Yaratilishi lozim bo'lgan ish o'rinlari soni	Shu jumladan													
				Nogironlar uchun (3 foiz)		Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb -hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun		On to'rt yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali ota-onalar		Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun		Safarbarlik chaqiruv zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari saflaridan muddati harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun		Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun		Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan odam savdosi qurbonlari uchun	
				soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi
1	Kosonsoy tuman tibbiyot birlashmasi	1164	81	22	1,9	30	2,6	12	1,0	7	0,6	3	0,3	4	0,3	3	0,3
2	KEKSALAR VA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR, URUSH VA MEHNAT FAXRIYLARI UCHUN "KOSONSOY" SANATORIYASI	87	6	2	2,3	1	1,1	1	1,1	1	1,1	0	0,0	1	1,1	0	0,0
3	1-umumiy o'rta ta'lim maktabi	84	6	2	2,4	1	1,2	1	1,2	1	1,2	0	0,0	1	1,2	0	0,0
4	9-Davlat ixtisoslashgan maktab-internati	82	6	2	2,4	1	1,2	1	1,2	1	1,2	1	1,2	0	0,0	0	0,0
5	19-umumiy o'rta ta'lim maktabi	60	4	2	3,3	1	1,7	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	1	1,7
6	KOSONSOY TUMAN 3-SONLI KASB-HUNAR MAKTABI	103	7	2	1,9	1	1,0	2	1,9	0	0,0	1	1,0	0	0,0	1	1,0
7	7-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	41	3	2	4,9	0	0,0	1	2,4	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
8	16-MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	45	3	1	2,2	1	2,2	1	2,2	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
9	PODSHOOTA-CHODAK IRRIGATSIYA TIZIMI BOSHQARMASI	97	7	1	1,0	2	2,1	2	2,1	1	1,0	0	0,0	1	1,0	0	0,0
10	"AHSIKENT SOF SANOAT" mas'uliyati cheklangan jamiyati	99	7	2	2,0	2	2,0	1	1,0	1	1,0	0	0,0	1	1,0	0	0,0
11	"ORIENTAL GARMENT TEXTILES" mas'uliyati cheklangan jamiyati	90	6	2	2,2	2	2,2	1	1,1	1	1,1	0	0,0	0	0,0	0	0,0
12	"BILNUR SOFT TEXTILE" mas'uliyati cheklangan jamiyati	41	3	1	2,4	1	2,4	1	2,4	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
	JAMMI	1 993	139	41	2,1	43	2,2	24	1,2	13	0,7	5	0,3	8	0,4	5	0,3

Kosonsoy tuman hokimining
2023-yil 10-oktabrdagi
345-6-80-Q/23-son qaroriga
3-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi

Oldingi tahrirga qarang.

Tashkilotning nomi:

Yuridik manzili:

20__ yil «__» _____ oyi uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

MA’LUMOT

1. _____ tumanlar (shaharlar) hokimlarining qaroriga muvofiq nazarda tutilgan hisobot yilida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari soni.
2. Zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirilganlar soni:

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar soni	Hisobot davri oxiridagi holati bo‘yicha ishlamoqda (kishi)	ulardan ishga joylashtirilganlar	
		hisobot oyida	yil boshidan boshlab
Jami:			
shu jumladan:			
o‘n to‘rt yoshgacha va nogironligi bo‘lgan shaxs bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalar			
umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari			
safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar			
nogironligi bo‘lgan shaxs va pensiyaoldi yoshidagi shaxslar			
jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar			
odam savdosi qurbonlari			

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun bo‘sh ish o‘rinlari soni, hisobot davri oxiriga _____ ish o‘rinlari.

Tashkilotning
rahbari

_____ (imzo)

Kadrlar bo‘limi boshlig‘i (inspektor)

_____ (imzo)

M.O'.

20__ yil «__» _____